



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA YANGICHA YO'NALISHLAR

Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

INGLIZ TILI KAFEDRASI

**XORIJIY TILLARNI
O‘QITISHDA ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR VA
YANGICHA YO‘NALISHLAR**

Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2023**

8. Salayeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik. "Nodirabegim" nashriyoti. -T.: 2021.-598b.

KETRIN MENSFILD HIKOYALARINING USLUB XUSUSIYATLARI

Ataullayeva Sitorabonu
Shafiqo Yorqin (Afg'oniston)

***Annotation:** This article is devoted to the interpretation of the stylistic features of the stories of the famous English writer Katherine Mansfield. In the article, based on several stories, the writer's skills in creating images, using motifs, and using words are highlighted. The role of symbolism is defined in her works. The principles of choosing a subject and determining the development of events are discussed.*

***Keywords:** Style, plot, development of events, story, symbolism, image, character, motive, tradition.*

Ketrin Mensfild ingliz adabiyotida kichik hikoya janrining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan adiblardan biri hisoblanadi. U jahon adabiyotida o'ziga xos yo'nalishi, uslubi bilan ajralib turadi. Mensfild hikoya yozishga o'zgacha yondashadi. Ko'pgina hikoyanavislar hikoyalarida sujet ketma-ketligiga e'tibor qaratishadi. Ammo, Mensfild hikoyalarida murakkablashuvni kuzatamiz. U, boshqa ijodkorlardan farqli tarzda, voqealar rivojiga emas, balki hikoya qahramonlarining ichki his-tuyg'ulari, kechinmalarini yetakchi o'rinda tasvirlashga harakat qiladi. Mensfild hikoyalarida voqealar rivojidan ko'ra, qahramonlar o'y-xayollari kengroq tasvirlanadi. U obrazlar ruhiy holatini tahlil etishga, aniq ifodalab ko'rsatishga harakat qiladi. Yozuvchining hikoyalarini xotimalash uslubi ham o'ziga xos. U asariga tayyor yechim, xulosa bermaydi. Ko'pincha yakuniy to'xtamga kelish o'quvchining o'z ixtiyorida qoldiriladi.

Mensfild rus yozuvchisi bo'lmish Anton Pavlovich Chexovni o'ziga ustoz deb hisoblaydi. Uning asarlaridan ta'sirlanib asarlar yozadi. Lekin, shunga qaramay, aniq aytishimiz mumkinki, uning yozish uslubi Chexovning yozish uslubidan keskin farq ham qiladi. Chunki A. Chexov hikoyalarida kulgu va yumor yetakchilik qilganini kuzatamiz. U o'zining ko'pgina hikoyalarida o'quvchining diqqatini jalb qilish uchun, ularni hikoyaga qiziqtirish uchun va, albatta, hikoyalarining betakror chiqishi uchun ham yumordan mohirona foydalangan. Biroq, Mensfild

o'z asarlarida yumordan juda kam hollarda istifoda etgan. Ichki kechinmalar ko'proq tasvirlangani uchun, uning uslubi Chexovnikiga nisbatan birmuncha murakkab tuyuladi. U ko'proq inson hayotida uchrashi mumkin bo'lgan muammolar, moddiy va ijtimoiy qiyinchiliklar, tabaqaviy tafovutlar, insonlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar haqida yozgan. Uning asarlarida inson ruhiyati manzaralari, drammatizm yetakchilik qiladi. Mensfild asarlari markazida bosh masala, bosh g'oya sifatida muqaddima, yolg'izlik, tabaqalanish, kambag'alchilik qiyinchiliklari, yakkalanish, adolatsizlik kabi mahzun ruhiy kechinmalar ifodasi turadi.

Uning ijodidagi asosiy yangilanish Modernizmdir. Bu yo'nalish Viktoriya va Edvard davrlaridagi optimizm, pozitivlik va aniqlikdan farqlanib turadi. Mensfild o'zining birinchi jahon urushidan keyingi asarlarida, o'quvchini tashqi ko'rinishning aldamchiligi, hayotning o'zgaruvchanligi, doimiy-turg'un emasligi, ayniqsa, bir onlik quvonch va baxtning aldamchiligini, dunyoning o'tkinchiligini anglab yetishga undaydi.

“Muqaddima” Mensfildning yoqtirgan mavzularidan biri hisoblanadi. Uning bu talqindagi asarlari shafqatsiz dunyoda yashab qolish va kurashishni o'rganish jarayonini qamrab oladi. Uning bu mavzudagi hikoyalarida ko'pincha yosh qahramonlar asar markazida turadi. Masalan, “Bog'dagi ziyofat” (“The Garden Party”) hikoyasida Laura bilan o'lim va kambag'allarning yashash sharoitlari o'rtasidagi ziddiyat yetakchilik qiladi. “Uning birinchi bali” (“Her First Ball”) hikoyasida Leylaning kattalar hayotidagi soxtakorlik va kamchiliklarni anglab yetish yo'lidagi mashaqqatlari ifodalanadi. “Yosh murabbiya” (“The Little Governess”) hikoyasida esa yosh murabbiy qizning yoshi katta bir inson tomonidan aldanishi va ishonchining poymol bo'lishi tasvirlanadi.

Ketrin Mensfildning dastlabki, mashhur hikoyalaridan biri “Rozabelning toliqishi” (The Tiredness of Rosabel)dir. Unda shlyapa sotuvchisi Rozabelning o'y-xayollari, ichki kechinmalari talqin etiladi. Hikoyada Rozabel uzoq cho'zilgan ish kunidan so'ng uyiga qaytadi va boy turmush o'rtoq, to'ydan keyin kechadigan asal oyi, o'ziga to'q, baxtli yashash tarzi haqida orzu qila boshlaydi. U o'z orzulariga shu qadar berilib ketadiki, juda toliqqanligidan uxlab qolib, hattoki, tushida ham orzu qilishda davom etadi. Asarda O. Genri hikoyalari bilan umumiylik ko'zga tashlanadi. Ammo shu bilan birga, keskin farq qiladigan tomonlarni ham kuzatamiz. Jumladan, O. Genri inson

xarakterini, ruhiy olamini hikoyadagi voqealar vositasida ochib berishga harakat qiladi. Ammo K. Mensfild hikoyasida A.P. Chexovning ta'siri ko'proq. U voqealar rivojidan tashqari, ichki kechinmalar, ruhiy evrilishlardan ham xarakter yaratishda mahorat bilan, unumli foydalana oladi. Hayotda ertakdagi shahzoda ham, tasodifan topilgan hamyon ham yo'q. Kechaga o'xshaydigan bugun va bugunga o'xshaydigan erta bor, xolos. Shunday ekan, Rozabel o'zining yagona boyligi bo'lgan ishonchini qachongacha saqlab qolishga kuchi yetarkin. Albatta, toki ishonchi shafqatsiz dunyo tomonidan tortib olinmagunicha: «Ночь прошла, – заканчивает рассказ Мэнсфилд. – Холодные пальцы рассвета сомкнулись на ее непокрытой руке, серый день проник в унылую комнату. Розабел поежилась, не то всхлипнула, не то вздохнула и села. И оттого, что в наследство ей достался тот трагический оптимизм, который слишком часто оказывается единственным достоянием юности, еще не совсем проснувшись, она улыбнулась чуть дрогнувшими губами» [15, С. 68].

Mensfild hikoyasining mana shu so'nggi jumllarida “трагический оптимизм”, ya'ni fojiali optimizm iborasini qo'llaydi. Bu bilan u insonning faqatgina orzu-istaklar og'ushida hayot kechirishi fojiali holatligini o'quvchiga yetkazmoqchi bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Mensfild Viktoriya va Edvard davridagi (19-asr) optimizm va pozitivlikdan farq qiluvchi Modernizm yo'nalishida ijod qilgan. “Rozabelning toliqishi” (The Tiredness of Rosabel) hikoyasi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Mensfild hikoya janrini rivojlantirar, uni o'ziga xos xususiyatlar bilan boyitar ekan, zamondoshlari bo'lmish O. Genri, T. Gardi, A. Chexov, J. Joys kabilarning tajribalaridan oqilona foydalangan. Ammo an'anaviylik bu taqlid emas. Jahon adabiyoti tarixida yangilanish, o'ziga xoslik va individuallashtirish hamisha an'analar zamirida ulg'ayganligining guvohi bo'lamiz. Mensfild asarlarida ham xuddi shunday taraqqiyot belgilarini kuzatamiz. U yaratgan har bir namuna jahon hikoyanavisligida individualligi, o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham, XX asr adabiyotida adiba ijodi alohida yorqin sahifa sifatida e'tirof etiladi.

Ketrin Mensfild hikoyalaridagi inson konsepsiyasi ham o'ziga xos. U asarlari uchun, ko'zga yaqqol tashlanib turadigan, jamiyatning faol, yorqin qahramonlarini obraz sifatida tanlamaydi. Balki odatiy, tabiiy sharoitlarda yashovchi sodda shaxslarni yetakchi personajlar maqomida tasvirlaydi. Hikoyalarida, ko'pincha, adibaning diqqat-e'tibori hayotda

juda ham muhim bo'lmagan ijtimoiy faktlar, holatlar va hodisalarga qaratiladi: masalan, asar qahramonlari uchrashishadi ("Psixologiya") va ayrilishadi ("Голубь и голубка"), yangi uyga ko'chib kelishadi ("Прелюдия"), oilaviy bayramlar, to'ylar uyushtirishadi ("Солнце и Луна", "Пикник", "Фрау Брекенмахер на свадьбе"), ish qidirishadi ("Актриса"), bog'da sayr qilishadi ("Мисс Брилл"). Shulardan ayon bo'ladiki, Mensfild hikoyalaridagi insonlar kundalik, har kuni sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jarayonlar, tabiiy sharoitlar qurshovida tasvirlanishadi: "В рассказах писательницы проявились новые подходы к человеку: в поле ее зрения оказались не яркие, исключительные характеры, а, напротив, простые, заурядные герои, изображенные в обычных, естественных условиях. Ее внимание сосредоточено на обыденных, незначительных событиях и фактах. Герои встречаются («Психология») и расстаются («Голубь и голубка»), переезжают в новый дом («Прелюдия»), устраивают семейные праздники («Солнце и Луна»), пикники и свадьбы («Пикник», «Фрау Брекенмахер на свадьбе»), ищут работу («Актриса»), гуляют в парке («Мисс Брилл»), то есть они не вырваны из потока жизни, но, наоборот, зафиксированы в процессе обычного, каждодневного бытия." [А. А. Бурцев, М. А. Бурцева. Концепция человека в рассказах Кэтрин Мэнсфилд, 2017, С.191].

D.Konrad, D.Joys va boshqa xorijiy yozuvchilar ijodlaridagi kabi Mensfild hikoyalarida ham asosiy mavzular yolg'izlik, begonalashish, hayotning achchiq haqiqatlari qarshisida tik tura olish va uzoqlashish tuyg'ularini tasvirlashdan iborat. Jumladan, "Жизнь матушки Паркер" (Parker onaning hayoti) hikoyasida Parker ona hayoti davomida juda qadrli bo'lgan farzandlaridan ayriladi. Turmush o'rtog'ini ham o'zi dafn etadi. Nevarasidan ham ayrilganida, bunga dosh berolmaydi. Butun vujudi, go'yoki, qurigan daraxtdek, o't bo'lib yonadi. Ammo na chora! Inson taqdirning barcha sinovlariga chidashga majbur. Boshqa iloji ham, chorasi ham yo'q. Parker onaning ham ruhan siniqqan, g'amgin nafas olish va taqdiriga tan berishdan o'zga chorasi qolmaydi.

Ko'rinadiki, Mensfild hikoyalari hayotning achchiq va alamli haqiqatlarini ko'rsatishga, ular qarshisida matonat, sabr va qanoat bilan tura olgan insonlarning iroda qudrati va kuchini tasvirlashga asoslangan. Hikoya qahramonlarining ayanchli taqdirlar qurshovida ko'nglidan o'tayotgan o'y-kechinmalarini, ruhiy iztiroblarini mahorat bilan o'quvchilariga yetkazib bera olgan. U ijtimoiy-psixologik talqin tamoyillaridan unumli foydalangan. Asarlarida yozuvchining badiiy

niyati qahramonlarning orzulari, xayollari, xotiralari, kayfiyatlari va ruhiy holatlari orqali ochib berilgan.

Hikoyalarida Mensfildning asosiy maqsadi, voqealarga boy sujetlarni bayon etishdan iborat emas. Balki o'quvchilarini inson psixologiyasi bilan chuqurroq tanishtirish, ruhiyat olamini teranroq yoritish, bu orqali esa, zamondoshlarini insonni anglashga da'vat etmoqdan iboratdir.

Mensfild hikoyalarida ramziylikka alohida e'tibor qaratadi. Qo'llanilgan ko'plab ramziy obrazlar, voqealar borki, ular yozuvchi badiiy niyatini yoritishga xizmat qiladi. Ayrim detallar o'quvchini bosh obraz xarakterini, ichki dunyosini anglashga yo'naltirishi bilan ajralib turadi. Jumladan, muallif tush motividan unumli foydalangan. "Девочка, которая устала"(Toliqqan qizaloq) hikoyasida qizaloq bir xil tushni bir necha marotaba ko'radi. U tushida hech kim bir marotaba ham yurmagan, hech qayerga olib bormaydigan, ikki tomoni baland, qora daraxtlar bilan o'ralgan oppoq yo'lkani qayta-qayta ko'raveradi. Bu tasvirni, qizaloqning hech qachon ushalmaydigan orzusi sifatida talqin etishimiz mumkin.

Ko'rinadiki, Mensfild o'quvchi bilan ikki tilda so'zlashadi. Birinchisi, so'zlar va, ikkinchisi, ishoralar orqali ramziylik tilida. Yozuvchi barcha fikrini kitobxonga oshkora so'zlamaydi. Ayrim ishoralar vositasida ularning o'zini ham o'ylashga, fikrlashga yo'naltiradi. Bu Ketrin Mensfildning va haqiqiy yuksak adabiyotning muhim jihati.

Yozuvchini ko'proq oddiy, sodda, yolg'iz, qalbida jarohati bo'lgan xarakterlar o'ziga jalb qilgan. U yaratgan bunday personajlar, boshidan kechirgan chuqur qayg'ular, murakkab psixologik holatlarga qaramasdan, ichki dunyosining boyligi bilan ajralib turadi. U obraz yaratar ekan, voqealar rivojiga emas, balki ruhiyat manzaralari rivojiga ko'proq e'tibor qaratadi. Uning barcha hikoyalarida kuchli ruhiy tahlilni ko'ramiz. Mensfild asarlarida pozitivlik va optimizm ko'rinmasa-da, ijodidagi bu tamoyil orqali real hayotda uchraydigan achchiq va alamli haqiqatlarni fosh etishga erishadi. Shu yo'l bilan kitobxonning ko'zini ochishga, uni hushyorlantirishga, hayotga tiyrak ko'z bilan boqishga yo'naltiradi. Bu esa yuksak adabiyotning vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

I.A. А. Бурцев, М. А. Бурцева. Концепция человека в рассказах Кэтрин Мэнсфилд. 2017, С.191

2.Л. Володарская. Кетрин Менсфилд и ее рассказы. См.: Кетрин Менсфилд. Рассказы. Перевод с англ. Москва. Книга. 1989, стр.13

3.А.П. Чехов. Страх. См.: А.П.Чехов. Рассказы. Moskva, 1992, стр.357

4.Dilmurod Quronov. Ilhom bilan yozilgan asar. Qarang: “Jahon adabiyoti” jurnali. 2007, № 5, 35-b.

5.Г.Т. Гарипова. Сравнительный анализ рассказов А. Чехова “Страх” и А. Каххара “Страх”. См.: Журнал “Преподавание языка и литературе”, 2012, № 8, стр. 40.

6.Абдулла Қаххор: шахс ва ижодкор. (Архив кўлёмалари ва хотиралар асосида мақолалар тўплами). – Т.: Тамаддун, 2013. – 160 б.

7.Борев Ю. Искусство интерпретации и оценки. – М., 1981. – С.51-56.

8.Brunettièrè F. Évolution des genres dans l’histoire de la littérature. – P., 1890.

9.Карим Баҳодир. Рухият алифбоси. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2016. – 364 б.

10.Кодуэлл К. Иллюзия и действительность. – М.: Прогресс, 1969. – 364 с

A COMBINATION OF ARTISTIC EXPRESSION AND SKILL IN THE NARRATIVE GENRE

**Ataullayeva Sitorabonu
Greta Swartz**

***Annotation:** The article examines the principles of literary influence and poetic renewal in the development of world literature. The role of Anton Pavlovich Chekhov’s works in world storytelling is illustrated. The influence of the author’s work on the works of the English writer Catherine Mansfield and the well-known writer of the Uzbek nation Abdulla Kakhar is studied on the example of their storytelling, and the stages of development are studied. The system of ideological and artistic growth in stories is scientifically proven.*

***Keywords:** national mentality, literary influence, artistic renewal, innovation, logo, contrast, ideological commonality, socio-psychological determinism, creative school.*